



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI  
BUYRUG‘I**

12 mart 2026 yil.

984-son

Toshkent sh.

**Umumiy malaka oshirish kursi bo‘yicha o‘qitish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4666-sonli qarori va Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil 15-iyundagi “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 160-sonli buyrug‘i ijrosini bajarish maqsadida

**B U Y U R A M A N :**

1. 2025/2026 o‘quv yili uchun Toshkent davlat tibbiyot universiteti Gematologiya, transfuziologiya va laboratoriya ishi kafedrasida tashkil etilgan “Klinik amaliyotda immunoferment va polimeraz zanjirli reaksiya tahlili” mavzusida 144 kredit-soat xo‘jalik hisobidan umumiy malaka oshirish kursida ilovada ko‘rsatilgan 25 nafar tinglovchilarning o‘qish muddati 2026-yil 2-martdan 2026-yil 1-aprelgacha etib belgilansin.

2. Umumiy malaka oshirish kursini muvaffaqiyatli yakunlagan tinglovchilarga belgilangan nusxadagi sertifikat berilishi ta‘minlansin.

3. Ushbu buyruq ijrosining nazorati O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor K.N.Xaitov zimmasiga yuklatilsin.

**Rektor**



**Sh.A.Boymuradov**